



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA

Ibodullayeva Parizod

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti O‘ZMPU
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
401-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasining faol ijodkorlaridan biri dramaturg, shoir Usmon Azim ijodiy faoliyati, uning hayot yo‘li, asarlarining badiiy xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati keng tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi o‘zbek adabiy jarayonida dramaturgiya janrining tutgan o‘rni, zamonaviy teatr amaliyotidagi ahvoli va rivojlanish yo‘nalishlari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Alpomish, Boysun, mahorat, dramaturg, shoir, milliy ruh, qadriyat, Usmon Azim, folklore, radio, sevgi, sadoqat, sahna, teatr.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется творческая деятельность одного из активных деятелей современной узбекской драматургии, драматурга и поэта Усмонна Азима, его жизненный путь, художественные особенности и образовательное значение его произведений. Также освещается роль драматургического жанра в современном узбекском литературном процессе, его статус в современной театральной практике и направления его развития.

Ключевые слова: Алпомиш, Бойсун, мастерство, драматург, поэт, национальный дух, ценность, Осман Азим, фольклор, радио, любовь, верность, сцена, театр.

Abstract: This article extensively analyzes the creative activity of one of the active creators of modern Uzbek dramaturgy, the playwright and poet Usmonn Azim, his life path, the artistic features and educational significance of his works. It also highlights the role of the dramaturgy genre in today's Uzbek literary process, its status in modern theatrical practice, and its development directions.

Keywords: Alpomish, Boysun, skill, playwright, poet, national spirit, value, Osman Azim, folklore, radio, love, loyalty, stage, theater.

KIRISH

O‘zbek adabiyoti tarixida dramaturgiya alohida o‘rin tutadi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrda bu janr yangi mazmun, yangi badiiy shakllar bilan boyib, milliy sahnamizda ulug‘vor asarlar yaratildi. Bugungi adabiy jarayonda dramaturgiya faqat sahnabop asarlar yozish bilan chegaralanib qolmay, balki milliy ruh, milliy qadriyat, tarixiy xotira, udum va an‘analar, jamiyat va insonlar orasidagi muammolar va insoniy qadriyatlarni tiklash vositasiga aylandi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli dramaturg Usmon Azimning ijodi zamonaviy adabiy jarayonda dramaturgiyaning rivojlanishini o‘rganishda muhim namuna bo‘la oladi. Usmon Azim nafaqat she‘r yozgan, balki dramaturg sifatida ham faoliyat yuritgan. U o‘ziga xos uslubi, milliy ruhiyati va badiiy kuchi bilan ajralib turuvchi ijodkordir. Uning dramalari

o'zbek milliy teatri repertuarida munosib o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida, milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

Usmon Azim 1950-yil 13-avgustda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Gaza qishlog'ida dunyoga kelgan. Qadimiy Boysun tuprog'i milliy an'analar, xalq og'zaki ijodi va qahramonlik ruhi bilan to'yingan makon. Boysun vohalarida folklorning keng namunalari, milliy udum va qadriyatlarimizning ko'plab turlari haligacha saqlanib qolganligi va havosining musaffoligi bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadigan so'lim go'shadir. Aynan shu muhit shoirning ma'naviy dunyosini shakllantirgan desak ajab emas. 1972-yilda Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagach, ijodiy faoliyatini ham aynan jurnalistikada boshlagan. Keyinchalik, Respublika radiosida muharrir, katta muharrir va bosh muharrir o'rinbosari sifatida (1976-1989) ishladi. Bu davrda u radioeshittirishlar uchun dramatik asarlar yoza boshladi va "Baxtli bo'laylik", "Hujjatli film uchun syujet", "Bahodir va Malika" singari radiopyesalar yozdi. Mazkur asarlar dramaturgiya uchun poydevor vazifasini o'tadi. Usmon Azim she'riy ijodini 1970-yillarning boshida boshlagan. 1979-yilda nashr etilgan "Insonni tushunish" nomli ilk she'riy to'plami uni adabiy jamoatchiliklarga tanishtirdi. Keyinchalik "Holat" (1979), "Oqibat" (1980), "Ko'zgu" (1983), "Surat parchalari" (1985), "Dars" (1985), "Ikkinchi aprel" (1987), "Baxshiyona" (1989), "G'aroyib ajdarho" (1990), "Uyg'onish azobi" (1991), "G'ussa" (1994), "Uzun tun" (1994), "Kuz" (2001) kabi she'riy to'plamlar, shuningdek "Jodu" (2003), "Adibning umri" (2010), "So'ngi so'zlar" (2020) nasriy to'plamlari va "Kollaj" (2018) asarlari nashrdan chiqdi.

Usmon Azim 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab dramaturgiya sohasida jiddiy shug'ullana boshladi. Radio dramaturgiyasida to'plagan tajriba unga sahna asarlarini yozishda katta yordam berdi. Uning dramalari mavzu va janr jihatidan xilma-xilligini saqlab, o'zbek milliy teatri uchun muhim hissa qo'shdi. Shoirning yirik sahna asarlaridan biri birinchi bo'lib sahnalashtirilgan "Bir qadam yo'l" pyesasidir, U bu pyesani 1997-yilda yozgan. Pyesa insonning hayotdagi tanlov masalasini, axloqiy mas'uliyatini va jamiyatdagi o'rnini muhokama qiladi. Oddiy insonlarning kichik qarorlari orqali katta hayotiy haqiqatlar ochib beriladi.

Ta'sirli va eng mashhur dramalaridan biri "Kunduzsiz kechalar" dramasi Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilib, Andijonda o'tkazilgan xalqaro festivalda "Eng yaxshi spektakl" mukofotiga sazovor bo'lgan. Ushbu dramada inson qalbi, sevgi, sadoqat va turmush og'irliklari go'zal lirik tarzda talqin etilgan.

2000-yilda yozilgan "Alpomishning qaytishi" sahna asari xalq eposining zamonaviy talqinidir. Bu asar milliy qahramonimiz, dostonlarda nomi kelgan Alpomish obrazini yangicha obrazda taqdim etgan holda, yurtga bo'lgan muhabbat, erkinlik va milliy iftixor mavzularini o'zida mujassamlashtirgan. Muallif bu asar uchun 1999-yilning "Eng yaxshi dramaturgi" unvoniga sazovor bo'ldi. Asar tarixiy va milliy o'zlikni anglash nuqtai nazaridan katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Usmon Azim dramalarida, o'zbek milliy ruhiyati, qadriyat va an'analari xalq va tarix mujassam bo'lsa, ikkinchi tomondan, insoniyat uchun umumiy bo'lgan sevgi, sadoqat, haqiqat, adolat mavzulari ko'tariladi. "Alpomishning qaytishi" eposi zamonaviy tafakkur bilan uzviy bog'langan holda talqin etilishi buning yorqin misoli bo'la oladi.

Dramalarida ko‘proq qahramonning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari haqqoniy aks ettirilgan va obrazlarida bir tomonlama yaxshi yoki yomon emas, ularning barchasi insoniy murakkabliklarga ega qilib tasvirlangan. Bu holat esa dramalarni badiiy adabiyotda ham, sahna oldida ham hayotiy va ishonchli qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Usmon Azim dramalari milliy teatrimizni boyitibgina qolmay, balki yoshlar tarbiyasida ham muhim o‘rin tutmoqda. “Bolalar adabiyoti” fanining maqsadlari -yoshlarni milliy ruh bilan tarbiyalash, badiiy did va estetik zavqni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish - aynan Usmon Azim dramalarida o‘z ifodasini topgan. Bugungi adabiy jarayonda Usmon Azim ijodini o‘rganish faqat adabiyotshunoslik vazifasi emas - bu yoshlarni milliy merosga yaqinlashtirish, ularni go‘zallik, haqiqat va insonparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy usuli hamdir. Shoir va dramaturging 2026-yilda ham faol ijod qilayotgani, yangi asarlar ustida ishlayotgani o‘zbek adabiyotining yorqin kelajagidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmon Azim. Bir qadam yo‘l: Pyesa. — Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
2. Usmon Azim. Kunduzsiz kechalar: Drama. — Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
3. Qodirov P. Hozirgi o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. Normatov U. O‘zbek prozasining rivojlanish yo‘llari. — Toshkent: Fan, 2005.
5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Mirzayev H. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. — Toshkent: Fan, 2008.
7. O‘zbek adabiyoti tarixi (5 tomlik). 5-tom. — Toshkent: Fan, 2007.
8. Akademiklar.uz - Usmon Azim tarjimai holi.
<https://akademiklar.uz/usmon-azim> (murojaat: 2026).
9. Vikipediya - Usmon Azim.https://uz.wikipedia.org/wiki/Usmon_Azim